

“MA’NAVIYAT” UMUMIY MA’NOLI FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING SEMANTIK STRUKTURASI

Sharipova Dildora Rashitovna,
Navoi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviyat umumiy ma’noli frazeologik sinonimlarning semantik strukturasi lingvistik tahlil qilingan, tadqiqotning asosiy maqsadi ma’naviyatni ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘zaro sinonimik munosabatlarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini yoritish, sinonim frazemalar orasidagi ma’no darajalanishi, shakliy va mazmuniy o‘zgaruvchanlik, ifoda bo‘yoqdorlik asosida farqlanishini tadqiq qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Frazeologik shakl, frazeologik ma’no, frazeologik birlik, frazeologik sinonimiya, semantik struktura, ekspressivlik.

Abstract. This article provides a linguistic analysis of the semantic structure of phraseological synonyms with a general meaning of spirituality. The main goal of the study is to determine the synonymic relationships of phraseological units expressing spirituality, to highlight their similarities and differences, to study the differentiation of synonymous phrasemes based on the level of meaning, formal and substantive variability, and expressiveness.

Keywords: Phraseological form, phraseological meaning, phraseological unit, phraseological synonymy, semantic structure, expressiveness.

Аннотация. В данной статье представлен лингвистический анализ семантической структуры фразеологических синонимов с общим значением духовности. Основная цель исследования — определить синонимические отношения фразеологических единиц, выражающих духовность, выявить их сходства и различия, изучить дифференциацию синонимичных фразеологий на основе уровня значения, формальной и содержательной изменчивости и выразительности.

Ключевые слова: Фразеологическая форма, фразеологическое значение, фразеологическая единица, фразеологическая синонимия, семантическая структура, выразительность.

Kirish. Frazeologizmlarning shakli – bu so‘zlarning qat’iy, ko‘pincha o‘zgarmas birikmasi bo‘lib, uning tarkibiy elementlari o‘zaro mustahkam bog‘langan va odatda almashinishga yoki o‘zgartirishga moyil bo‘lmagan birlik.

“Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so‘z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma’nodir”. Mazmuniy tomon esa frazeologizmning semantik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Frazeologik ma’no, odatda, oddiy leksik birliklarning yig‘indisi bo‘lgan ma’nodan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu ma’noni ko‘pincha kontekstsiz va diskurssiz alohida tushunish qiyin. Frazeologik ma’noning murakkabligi shundaki, u so‘zlar to‘plamidan kattaroq, ko‘pincha madaniy va kontekstual komponentlarga ega bo‘lgan semantik birlikni tashkil etadi. Shu bilan birga, frazeologizm tushunchasini to‘liq ochib berishda uning lingvistik va kognitiv aspektlariga e’tibor qaratish zarur. Frazeologizmlar nafaqat so‘zlarning ketma-ket yig‘indisi, birikuvi, qo‘shilishi, balki ularning ma’naviy, madaniy, tarixiy va sotsiologik kontekstida shakllangan ma’nolarini ifodalaydi. Bu esa frazeologizmlarning tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Muhokama. Frazologizm ikki yoqlama lisoniy birlik sifatida shakl va mazmunning o‘zaro bog‘liq va uzviy birligini tashkil etadi. Ularning shakliy tomonini so‘zlar tashkil etsa, mazmuniy tomon esa frazeologik ma‘no bo‘lib, u oddiy leksik birliklaridan murakkabroq va turli ma‘no qirralariga ega semantik strukturalar. Frazologik ma‘noning denotativ va grammatik turlari tilshunoslikda frazeologizmlarni tahlil qilish va tushinishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular tilning funktsional va xalqning ma‘naviy, madaniy, tarixiy xususiyatlarini tilda aks ettirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Jumladan, “bir yoqadan bosh chiqarmoq” iborasi ham “ma‘naviyat” kategoriyasiga aloqador frazeologik birlik sifatida o‘rganiladi Sababi shaxs ma‘naviy sifatlaridagi eng asosiy axloqiy sifatlardan biri bu ahillik. Ushbu ibora *hamjihatlik, yakdillik, umumiy maqsad sari birlashish* semalari asosida “Ma‘naviyat” leksik kategoriyasining “axloq” ma‘naviy guruhiga oid. Mazkur ibora denotativ ma‘nosi asosida bir qancha semantik guruhlarga oid bo‘ladi va o‘zining leksik paradigmasiga ega. “Odatda, frazeologizmning ma‘nosi bir leksema ma‘nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma‘nosi teng bo‘lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo‘lib qolar edi”.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda frazeologizm va leksema tushunchalari o‘rtasidagi semantik farq tilning leksik-semantik tizimini chuqurroq tushinishda muhim ahamiyatga ega. Odatda, frazeologizmning ma‘nosi bir leksema ma‘nosiga teng deb qaraladi, ya‘ni frazeologik birlik ma‘nosi yagona, mustahkam va butunlik sifatida qabul qilinadi. Biroq, bu tamoyil har doim ham to‘g‘ri emas, chunki frazeologizm va leksemaning ma‘nolari hech qachon bir-biriga to‘liq teng bo‘la olmaydi. Sababi har bir iboraning sememasi takrorlanmasdir. Agar ular teng bo‘lsa edi, yuqoridagi fikrda aks etganidek, frazeologizm tushunchasi til tizimida ortiqcha bo‘lardi. Shu bois, frazeologizm va leksema o‘rtasida sifat jihatidan farq mavjudligini aniqlash zarur. Buni “bir yoqadan bosh chiqarmoq” va “bir tanu bir jon bo‘lish” iboralarining semantik qiyoslanishi asosida tahlil qilamiz. Mazkur iboralarining har ikkalasi ham ma‘naviya kategoriyasiga kiruvchi frazeologik birliklar bo‘lib, umumiylik, birlik va hamjihatlikni ifodalaydi. Biroq ular o‘zaro semantik jihatdan farq qiladi. “Bir yoqadan bosh chiqarmoq” iborasi asosan “birgalikda harakat qilish”, “bir maqsad sari birlashish”, “faoliyatda yakdil bo‘lish” ma‘nosini bildiradi. Bu ibora ko‘proq *tashkiliy, harakatga yo‘naltirilgan birlikni* aks ettiradi. “Bir tanu bir jon bo‘lish” iborasi esa “yanada chuqurroq, ruhiy va jismoniy bog‘lanishni” ifodalovchi birlikni bildiradi. Bu ibora ko‘proq insonlar o‘rtasidagi *ichki, hissiy birlashuv, mutlaq yaqinlik va birdamlikni* anglatuvchi semema bilan farqlanadi. Frazologizm sememalari tarkibiga uning metaforik, kontekstual va madaniy komponentlariga oid ma‘nolar kiradi, ular frazeologizm ma‘nosining kengroq va ko‘p qirrali bo‘lishini ta‘minlaydi. “Bir yoqadan bosh chiqarmoq” iborasi sememasi tarkibida “birlik”, “faoliyat”, “hamjihatlik” kabi semalar mavjud. Bu ibora o‘zining semantik strukturasida tashkiliy birlik va harakatga yo‘naltirilganlikni aks ettiradi. “Bir tanu bir jon

bo‘lish” iborasi esa sememada “birlashuv”, “ichki bog‘lanish”, “yaqinlik” va “ruhiy birdamlik” semalari mavjud bo‘lib, bu iboraning yanada chuqurroq, hissiy va ontologik birlikni ifodalashini ko‘rsatadi. Frazologizm va leksema o‘rtasidagi semantik farqni tushunishda ularning sema va sememasi muhim rol o‘ynaydi. Leksema ma‘nosi asosan aniq, tushunarli, nutqiy nafaol va bosh ma‘noli bo‘lsa, frazeologizm ma‘nosi hosila ma‘noli, metaforik va milliy, ma‘naviy-madaniy kontekstga boy bo‘ladi. “Bir yoqadan bosh chiqarmoq” va “bir tanu bir jon bo‘lish” iboralari frazeologik birliklar sifatida umumiy ma‘naviy birlik tushunchasini ifodalasa-da, ularning ma‘nosida farqlar mavjud. Bu farqlar ularning semantik strukturasi, ya‘ni semalar va sememalar to‘plamida aks etadi. Bu holat frazeologizmlarning leksik birliklardan farqli o‘laroq, tilning ifoda vositalari sifatida boy va ko‘p qatlamli ma‘nolarni anglatishini ko‘rsatadi.

Frazeologizm va leksema ma‘nosi hech qachon to‘liq teng bo‘lmaydi, agar bir xil bo‘lganda sinonim bo‘lmaydi. Frazologizmlar tilning semantik va milliy madaniy qatlamini boyituvchi, leksik birliklardan farqli o‘laroq ko‘p qirrali ma‘no tizimlariga ega. “Bir yoqadan bosh chiqarmoq” va “bir tanu bir jon bo‘lish” kabi frazeologik birliklarning semantik tahlili ularning sema va sememalari orqali farqlanib, tilning ma‘nolarni ifodalashdagi nozik va murakkab mexanizmlarini yoritadi. Shu bois, frazeologizmlarni leksemalardan farqlash va ularning semantik strukturasi chuqur o‘rganish “Ma‘naviyat” leksik kategoriyasida muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, yana qanday farqlar sinonim iboralarni farqlashga xizmat qiladi? Avvalo, ibora tarkibidagi sema va semema eng faol farqlovchi usul bo‘lsa, quyidagilar unga “yordamchi farqlovchi” vazifasini o‘taydi.

Frazeologik sinonimlar integral sema jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ifoda bo‘yoqlari (ifoda semalari) bilan keskin farqlanib turadi. Masalan, “qo‘li ochiq”, “bag‘ri keng”, “borini beradigan”, “hotamttoy” iboralari “saxovatli”, “saxiy”, “boshqalarga yaxshilik ulashadigan”, “mehribon” integral semalari orqali birlashib bir yadroni tashkil qilsa-da, ularning har birida o‘ziga xos nozik farqlari bor. “Qo‘li ochiq” iborasi neytral, odatiy saxiylikni bildirib, “ochiq qo‘lli” iborasi bilan leksik variantlikni hosil qiladi. “Bag‘ri keng” frazemasi mehr-iltifoti ortiq darajada ifodalab, ushbu frazemada nafaqat saxiylik, balki kechirimlilik, insoniy kenglikni ifodalovchi yuqori darajadagi ijobiy baho bor. “Borini beradigan” birikmasi fidoyilik bilan bir qatorda kuchli ekspressivlik, harakat bilan bog‘liq semalarini ham ifodalaydi. “Hotamttoy” obrazli ibora bo‘lib, rivoyatlardagi tarixiy-afsonaviy qahramon nomi bilan bog‘liq. O‘TILda “saxiy, saxovatli, oliyjanob” ma‘nolarida kelib, saxovatning eng yuqori cho‘qqisini ko‘rsatadi. Ushbu iboralarni quyidagi darajalanish asosida farqlaymiz: (ma‘naviy kuchayib borish)

Sinonim so‘zlarning “saxiylik” belgisi asosidagi darajali ziddiyati			
0	1	2	3
qo‘li ochiq	bag‘ri keng	borini beradigan	hotamttoy

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'naviyat umumiy ma'noli frazeologik sinonimlar tilimizning boy ichki imkoniyatlarini va xalqimizning axloqiy qadriyatlarini to'laqonli aks ettiradi. Ushbu birliklarning semantik strukturasi tahlili ularning nafaqat ma'no jihatdan yaqinligini, balki nutqda o'ziga xos emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Frazeologik sinonimlarning ma'no qatlamlarini o'rganish tilshunoslikda leksik-semantik maydonlarni chuqurroq anglashga va ma'naviy merosimizni til faktlari orqali tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar, 2010.–131 b.
2. Hojiyev A. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent; “O'qituvchi” nashriyoti, 1978. – 39 b.
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N. Va b. O'zbek tili frazeologik lug'ati. –Toshkent.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022 –435 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. II J. – Toshkent.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022 – 420 b.

